Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodakhon Abdulla kizi	
O'zbekistonda hayot sug'urtasining joriy etilishi va unga ta'sir etuvchi demografik omillar ta'siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o'zgarishining turizm sektoriga ta'siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o'zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta'siri	1439
Baratov Sa'dulla Norjigit o'g'li, Jo'rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta'minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o'g'li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o'g'li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug'urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	
O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	



Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar.....	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafuz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'рни.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	
Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	



“Yashil” iqtisodiyotga o‘tishda xalqaro hamkorlik: O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo‘jaev Xadyatillo Billoxon o‘g‘li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O‘zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budget siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag‘allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘sinhni ta‘minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari.....	1690
O‘rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Budget tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po‘latov Tirkash Sotiboldiyevich	
“Ichki iste‘mol uchun qayta ishlash” bojxona protseduralarini O‘zbekiston sharoitida qo‘llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O‘zbekiston respublikasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfazovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo‘llari va strategiyalar	1714
Mo‘minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklaster tizimi rivojlantirish yo‘nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro‘ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo‘l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o‘g‘li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo‘lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko‘chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O‘zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A‘zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o‘g‘li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo‘llari	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to‘qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida o‘z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	



Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamiy Nuriddin Abdimalikovich	
Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni	1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati	1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	
Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	1809
Djurayev Paxlavonjon Usarovich	
Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari.....	1815
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	1819
Omarov Mamanbiy Allabergenovich	
Mathematical statistics in biology and medicine	1826
Vokhidov Alikul, Orazbaeva Ayjamal, Tog'amurotova Jasmina, Turotova Dildora	
"Yashil" energetika salohiyatini ro'yobga chiqarishda xatarlar va muammolar:	
O'zbekiston sharoitida tahlil va yechimlar	1833
Nasretdinov Nodir Tulqinovich	
Aglomeratsiyalar ekologik barqarorligi: koreya respublikasi tajribasi va o'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari.....	1837
Shohruh Shuhrat o'g'li Mardonov	
Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1843
Iminov Farxodjon Tohirjonovich	
Современные принципы и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в узбекистане.....	1848
Буранова Лола Вахобовна, Рахимова Шахло Ражапбоевна	
Роль малого и частного бизнеса в инновационном развитии экономики узбекистана: сравнительно-аналитический подход	1858
Мадраимова Согдиана Равильевна	
Sayyohlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va ularning huquqiy huquqlarini tiklash mexanizmlari	1864
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Sanoat korxonalarida inqozga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	1869
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Xalqaro kompaniyalarda Big Data va biznes jarayonlarini innovatsion boshqarish	1885
To'g'onov Ibrohimxo'ja, Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	1889
Darxanova Umida	
Tijorat banklarida moliyaviy injiniring konsepsiyasini mustahkamlashni takomillashtirish	1895
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
O'zbekistonda aholi farovonligini ta'minlash yo'llari	1902
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
"Uzsuvta'minot" aj tizim tashkilotlarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish uchun hisob tizimining xususiyatlari.....	1906
Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich	
Ways to develop and stimulate innovative activity of the enterprise	1909
U. Yusupov, Ye Junjiye	
Трансформация мировой торговли: путь от протекционизма к свободному рынку на примере узбекистана.....	1914
Олимова Насиба Акмаловна, Камилова Наргиза Абдукажоровна	



Xalqaro tajribada mulkni qayta baholash metodlari: O'zbekiston uchun moslashtirish imkoniyatlari.....	1920
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
O'zbekistonda professional futbol klublarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish	1924
Mirzayev Ulug'bek Abdusattarovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarining huquqiy asoslari.....	1931
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni tashkil etish va innovatsion rivojlanish tendensiyalari.....	1937
Haqberdiyev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida biznes ekotizimini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1944
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
The impact of intensive urbanization in tashkent on economic stability, environmental conditions, and demographic processes.....	1949
Khandamirdzhanova B.M., Shoislomova Komila Batyrovna	
Barqaror rivojlanish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari	1956
Maksudova Shaxzoda	
Ish bilan bandlik darajasiga makroiqtisodiy omillar: aholi jon boshiga yaim, inflatsiya, oliy ta'lim bilan qoplanish darajasining ta'sirini baholash	1961
Usmonov Ibrat Bobomurod o'g'li	
Mintaqaviy iqtisodiyotlarda kapital qo'yilmalarning determinantlari: qoraqalpog'istonda aholi va byudjet daromadlarini ekonometrik o'rganish.....	1966
Sarsenbayev Baxitjan Abdulgaziyevich, Kengesbayeva Suliuxan Maxsetbay qizi, Kengesov Diyorbek Umidovich	
Klasterlash asosida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning muhim xususiyatlari	1970
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Rabbimov Abror Mehriddin o'g'li	
Bugungi kunda inson kapitalidan to'g'ri foydalanish	1975
Dushaboyev Lazizjon Baxrom o'g'li	
Ta'minot zanjirida 4PL: o'zbekistondagi o'rni, kamchiliklari va rivojlanishi.....	1978
Ramazonqulov Sardorbek Hamroqulovich	
Urban aglomeratsiyalar sharoitida yer osti inshootlariga ta'sir etuvchi geologik xavflarni kompleks baholash.....	1983
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik indikatorlarini ishlab chiqish va baholash usullari.....	1987
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
Роль кооперации и агрокластеров в повышении эффективности мясомолочного производства	1991
Абдуллаев Жасурбек Абдижабборович	
Markaziy osiyo davlatlarida qishloq xo'jaligi sektorining rivojlanishi va uning iqtisodiy ahamiyati	1996
Voxidova Mehri Xasanovna, Xolxo'jayev Eldorxo'ja G'olibjon o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hujjat aylanishining samaradorligini rivojlantirish.....	2002
Baxtiyorova Dildora	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON HUJJAT AYLANISHINING SAMARADORLIGINI RIVOJLANTIRISH

Baxtiyorova Dildora

«International School of Finance Technology and Science»

instituti Menejment kafedra o'qtuvchisi

Email: dildorabaxtiyorova45@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hujjat aylanishi (EHA) tizimining ahamiyati, uni joriy etishdagi dolzarb masalalar hamda samaradorligini oshirish yo'llari atroflicha yoritilgan. Elektron hujjat aylanishi nafaqat hujjat almashinuvi tezligini oshiradi, balki inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytiradi, korrupsiyaviy holatlarning oldini oladi va boshqaruvning shaffofligini ta'minlaydi. O'zbekiston misolida EHA tizimlarining amaliyotga tatbiq etilish jarayonlari, mavjud infratuzilma, yuridik asoslar va texnologik imkoniyatlar tahlil qilingan. Shuningdek, tizimni to'laqonli joriy qilishda uchrayotgan muammolar – raqamli savodxonlik yetishmasligi, texnik baza zaifligi, tizimlararo muvofiqlik muammolari – hamda ularni bartaraf etish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola xulosasida EHA tizimining raqamli iqtisodiyotda boshqaruv va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishdagi roli ilmiy asoslangan holda asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, elektron hujjat aylanishi, axborot texnologiyalari, avtomatlashtirish, samaradorlik, raqamli savodxonlik, boshqaruv tizimi, kiberxavfsizlik, hujjat yuritish, innovatsion texnologiyalar.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the role and effectiveness of electronic document management systems (EDMS) within the context of a developing digital economy. EDMS plays a crucial role in accelerating document workflows, minimizing human errors, ensuring transparency, and reducing bureaucratic inefficiencies. Using Uzbekistan as a case study, the paper examines the current status of EDMS implementation, evaluates legal frameworks, technical infrastructure, and real-world practices. Particular attention is paid to common challenges such as low levels of digital literacy, insufficient technical capacity, and the lack of system interoperability. The article presents specific and practical recommendations aimed at enhancing the efficiency and scalability of EDMS in public and private institutions. In conclusion, the necessity of integrating EDMS as a key tool for digital transformation in governance and service delivery is theoretically and empirically justified.

Key words: Digital economy, electronic document management, information technology, automation, efficiency, digital literacy, management system, cybersecurity, document flow, innovative technologies.

Аннотация: В статье всесторонне рассматривается роль и значение системы электронного документооборота (ЭДО) в условиях формирования цифровой экономики. Электронный документооборот способствует ускорению процессов обмена документами, снижению человеческого фактора, повышению прозрачности управления и сокращению бюрократических процедур. На примере Узбекистана проанализированы текущее состояние внедрения ЭДО, правовая база, техническая инфраструктура и практические подходы к реализации цифровых систем. Особое внимание уделено существующим проблемам – недостаточному уровню цифровой грамотности, слабому техническому обеспечению, отсутствию интеграции между различными платформами. Также предложены конкретные рекомендации по повышению эффективности и масштабированию системы ЭДО. В заключении обоснована необходимость ускоренного внедрения ЭДО как ключевого инструмента цифровой трансформации в управлении.

Ключевые слова: Цифровая экономика, электронный документооборот, информационные технологии, автоматизация, эффективность, цифровая грамотность, система управления, кибербезопасность, документооборот, инновационные технологии.



KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas tarkibiy qismi sifatida raqamli texnologiyalar kundalik hayotimiz va ish faoliyatimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Ayniqsa, boshqaruv tizimlarini optimallashtirish, ish jarayonlarining samaradorligini oshirish hamda inson xatolari ehtimolini kamaytirish nuqtai nazaridan elektron hujjat aylanishi (EHA) tizimlariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Raqamli iqtisodiyotda axborot oqimining tezkor va ishonchli bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi va bu jarayonda EHA tizimlari muhim rol o'ynaydi.

Elektron hujjat aylanishi – bu tashkilotlar ichida hamda ular o'rtasida hujjatlarni yaratish, uzatish, olish, saqlash va kuzatib borish jarayonlarini to'liq raqamli shaklda olib borishga imkon beradigan zamonaviy texnologiyalardir. Bunday tizimlar hujjatlar aylanmasini qog'ozsiz muhitga o'tkazadi, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlaydi va masofaviy ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga, ish faoliyatining unumdorligini oshirishga hamda boshqaruvdagi ochiqlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotga o'tish bo'yicha qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Elektron hukumat, raqamli xizmatlar hamda EHA tizimlarini joriy qilish borasida sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Shu bilan birga, ushbu tizimlarning to'liq joriy etilishi yo'lida ayrim muammolar – texnik baza yetishmovchiligi, raqamli ko'nikmalarning pastligi va axborot tizimlari o'rtasidagi integratsiya muammolari – mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hujjat aylanishi tizimlarining ahamiyati, ularning samaradorlikka ko'rsatayotgan ta'siri, mavjud muammolar va ularni hal etish bo'yicha amaliy yechimlar yoritib beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Elektron hujjat aylanishi (EHA) va raqamlashtirilgan boshqaruv konsepsiyasi bugungi kunda xalqaro hamda milliy darajada chuqur tadqiq etilmoqda. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan ilmiy ishlanmalar, asosan, EHA tizimlarining foydalilik darajasi, texnologik yondashuvlari, huquqiy bazasi va boshqaruvdagi strategik rolini o'rganishga yo'naltirilgan.

Xorijiy olimlardan biri – L. Sprague (2017)¹ o'z tadqiqotida raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hujjatlar aylanishining axborot almashinuvidagi samaradorligini asoslab bergan. U, ayniqsa, hujjatlarni avtomatlashtirilgan shaklda boshqarish natijasida tashkilotlar ish unumdorligining 25–30 foizga oshishini ilmiy asoslar bilan tasdiqlagan. Shuningdek, N. Markus va T. Konrad (2020)² tomonidan olib borilgan tahlillarda EHA tizimlarining korxonalararo integratsiya jarayonlariga va raqamli boshqaruvdagi roliga chuqur urg'u berilgan.

Mahalliy mutaxassislardan A. Karimov (2021)³ O'zbekistondagi tashkilotlarda EHA tizimini joriy qilishda duch kelinayotgan asosiy muammolar – texnologik infratuzilmaning zaifligi, raqamli savodxonlikning pastligi, hamda normativ-huquqiy asoslarning to'liq shakllanmaganligi haqida fikr bildirgan. Shu bilan birga, M. Raximova (2022)⁴ o'z izlanishlarida EHA tizimlarining kichik va o'rta biznes subyektlari faoliyatida qanday natijalar berishini o'rganib, bu sohaga moliyaviy va maslahat yordami ko'rsatish zarurligini ilgari surgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PF-5992-son Farmoni hamda 2022-yil 5-yanvardagi PQ-78-sonli⁵ qarorida elektron hujjatlar aylanishi tizimi va raqamli transformatsiyani ilgari surish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. Ushbu normativ hujjatlar EHA tizimlarining davlat idoralari va biznes subyektlarida keng joriy etilishiga huquqiy asos yaratmoqda.

Umumlashtirib aytganda, mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, EHA tizimlarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi faqat texnik imkoniyatlarga emas, balki institutsional sharoit, qonunchilik bazasi hamda malakali inson resurslari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqola ilgari o'rganilgan tajribalarni umumlashtirib, O'zbekiston sharoitida ularni amaliyotga moslashtirish yo'llarini aniqlashga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu tadqiqotda elektron hujjat aylanishi (EHA) tizimlarining samaradorligini baholash va ularni

1 Sprague, L. (2017). *Electronic Document Management and Business Efficiency in the Digital Economy*. Journal of Digital Business, 12(3), 44–56.

2 Markus, N., & Konrad, T. (2020). Interoperability and Data Governance in Digital Document Management. *Information Systems Review*, 18(2), 89–104.

3 Karimov, A. (2021). Elektron hujjat aylanish tizimining O'zbekistonda joriy etilishi: muammo va yechimlar. *Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar ilmiy jurnali*, 3(1), 27–33.

4 Raximova, M. (2022). Kichik biznesda EHA tizimining samaradorligi va uni joriy etish omillari. *Ilm-fan va texnologiya rivoji jurnali*, 2(4), 51–57.

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PF-5992-sonli Farmoni. "Raqamli iqtisodiyotni joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida". www.lex.uz



raqamli iqtisodiyot sharoitida takomillashtirish yo'llarini aniqlashga qaratilgan kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning birinchi bosqichida EHA tizimlari, ularning raqamli iqtisodiyotdagi o'rni va ularning samaradorlikka ta'siri bilan bog'liq xorijiy va mahalliy adabiyotlar o'rganildi. Ilmiy maqolalar, xalqaro tajriba, davlat qarorlari va hisobotlar tahlil qilindi.

O'zbekistonning davlat va xususiy sektorlardagi ayrim tashkilotlarida EHA tizimlarining joriy etilishi holati tahlil qilindi. Bu bosqichda statistik ma'lumotlar, texnik infratuzilma holati, foydalanuvchi tajribasi va hujjat aylanish tezligi kabi mezonlar asosida baholashlar amalga oshirildi.

Elektron hujjat aylanishi tizimining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlar va tahdidlar aniqlash maqsadida SWOT tahlil usuli qo'llanildi. Bu yondashuv tizimni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qildi.

EHA tizimining rivojlanishi O'zbekiston misolida boshqa davlatlar – Estoniya, Janubiy Koreya va Qozog'iston tajribasi bilan solishtirilib, o'xshashliklar va farqlar aniqlangan holda xulosa chiqarildi.

Ushbu metodologik yondashuvlar asosida EHA tizimining hozirgi holati baholandi, muammolar aniqlandi va ularni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqotning natijalari esa maqolaning tahliliy va xulosa bo'limlarida yoritilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning ushbu bo'limida O'zbekiston sharoitida elektron hujjat aylanishi tizimlarining joriy etilishi va samaradorligi o'rganildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – EHA tizimlarining davlat va xususiy sektorlaridagi samaradorligini baholash va ularning raqamli iqtisodiyotda boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishdagi o'rnini aniqlashdan iboratdir.

Elektron hujjat aylanishi tizimlarining joriy etilish holati

So'rovnoma va amaliy tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonda elektron hujjat aylanishi tizimlari bir qator davlat va xususiy tashkilotlarda joriy etilgan. Biroq, tizimlarning samaradorligi va ulardan foydalanish darajasi tashkilotlar o'rtasida katta farq qiladi.

Masalan, davlat idoralari va boshqaruvi tizimlarida EHA tizimi to'liq amalga oshirilmagan bo'lib, faqat ayrim muhim organlarda, masalan, soliq idoralari va "Elektron hukumat" tizimi asosidagi davlat xizmatlarida elektron hujjat aylanishi faoliyat yuritmoqda. Xususiy sektorda va kichik biznesda esa EHA tizimi texnik qiyinchiliklar, raqamli savodxonlikning pastligi hamda byudjet cheklavlari sababli to'liq joriy etilmagan.

Tizim samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar

Texnik infratuzilma va raqamli ko'nikmalar – EHA tizimlarining samarali ishlashiga va keng qo'llanilishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, texnik infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi, serverlar va ma'lumotlar bazasining barqarorligi, shuningdek, internetning keng tarqalish darajasi tizim samaradorligiga sezilarli ta'sir qiladi. Ayniqsa, kichik va o'rta bizneslarda bu muammolar keng tarqalgan.

Raqamli savodxonlik darajasi ham tizim samaradorligiga katta ta'sir o'tkazadi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, tizimdan foydalanuvchi xodimlarning atigi 60%i EHA tizimlarining imkoniyatlaridan to'liq foydalanishi mumkin. Qolgan xodimlar esa tizimdan cheklangan bilim va ko'nikmalar bilan foydalanmoqda.

SWOT tahlili natijalari

EHA tizimi hujjat aylanishini tezlashtiradi va qog'oz hujjatlarning kamayishini ta'minlaydi, bu esa tashkilotlarning samaradorligini oshiradi.

Raqamli boshqaruvning shaffofligini ta'minlash va korrupsiyaviy xatti-harakatlarni kamaytirishga yordam beradi.

Xodimlar va mijozlar o'rtasidagi kommunikatsiya jarayonlarini soddalashtiradi.

Solishtirma tahlil natijalari

Tadqiqotda O'zbekiston bilan boshqa davlatlar, masalan, Estoniya, Janubiy Koreya va Qozog'istonning tajribalari solishtirildi. Estoniya raqamli hukumat va EHA tizimlari bo'yicha yetakchi davlatlardan biridir. U yerda hujjat aylanishi to'liq avtomatlashtirilgan va davlat hamda xususiy sektorda samarali ishlayotgan. O'zbekistonda esa bu jarayon hali boshlang'ich bosqichda, va ko'plab texnik va yuridik muammolar mavjud.

Janubiy Koreya va Qozog'istonning muvaffaqiyatli tajribalari raqamli hukumatni samarali tashkil etish uchun to'liq integratsiya, xalqaro standartlarga moslashuv va raqamli savodxonlikni oshirish muhimligini ko'rsatmoqda.

Amaliy takliflar va tavsiyalar

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Texnik infratuzilmani yaxshilash: Internet, ma'lumotlar bazasining barqarorligini ta'minlash, serverlar va xavfsizlikni kuchaytirish uchun yangi loyihalar ishlab chiqish zarur.

Raqamli savodxonlikni oshirish: Xodimlarga va fuqarolarga EHA tizimi bo'yicha treninglar va ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish zarur.



Kiberxavfsizlikni ta'minlash: Elektron hujjat aylanishi tizimlarida ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va monitoring tizimlarini yaratish lozim (1-jadval).

Jadval 1. Elektron hujjat aylanishi tizimlarining samaradorligini solishtirish (O'zbekiston va boshqa davlatlar).

Kriteriyalar	O'zbekiston	Estoniya	Janubiy Koreya	Qozog'iston
Tizimning integratsiya darajasi	Yangi boshlanmoqda, davlat sektorida cheklangan	To'liq integratsiya qilingan, barcha xizmatlar raqamlashtirilgan	Yuqori darajada integratsiya, barcha sektorlar elektronlashtirilgan	Kengaytirilgan, davlat va xususiy sektorda mavjud
Texnik infratuzilma	Yengil rivojlangan, ayrim hududlarda chekllovlar mavjud	Yuqori darajada rivojlangan, barqaror tizimlar	Rivojlangan, keng qamrovli internet tarmog'i mavjud	Takomillashtirilgan, muammolar mavjud
Raqamli savodxonlik darajasi	O'rta daraja, ko'plab xodimlar tizimdan to'liq foydalanolmaydi	Yuqori daraja, xodimlar to'liq malakali	Yuqori daraja, raqamli savodxonlik keng tarqalgan	O'rta daraja, ba'zi sohalarda chekllovlar
Kiberxavfsizlik	Kam rivojlangan, xavfsizlik choralarini yetarli emas	Yuqori daraja, zamonaviy xavfsizlik tizimlari	Rivojlangan, kuchli kiberxavfsizlik tizimlari	O'rtacha rivojlangan, xavfsizlikni yaxshilash zarur
Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi	Cheklangan, faqat ayrim xizmatlar elektronlashtirilgan	To'liq raqamlashtirilgan davlat xizmatlari	To'liq raqamlashtirilgan, samarali ishlamoqda	Rivojlangan, ba'zi xizmatlar elektronlashtirilgan
Xalqaro standartlarga moslashuv	Past daraja, xalqaro tajriba kamroq	Yuqori daraja, jahon standartlariga mos	Yuqori daraja, xalqaro me'yorlarga to'liq mos	O'rtacha daraja, xalqaro standartlarga qo'shilish jarayoni davom etmoqda
Hujjat aylanishining tezligi	O'rtacha, ba'zi tizimlar ishlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi	Yuqori, avtomatlashtirilgan tizimlar orqali tezlik oshgan	Yuqori, avtomatik tizimlar orqali tezlik ta'minlanadi	O'rtacha, ba'zi tizimlar hali avtomatlashtirilmagan


Jadvalda O'zbekiston, Estoniya, Janubiy Koreya va Qozog'iston o'rtasidagi elektron hujjat aylanishi tizimlarining samaradorligi solishtirildi. Tahlilga ko'ra:

Estoniya va Janubiy Koreyada tizimlar to'liq integratsiya qilingan va raqamli hujjat aylanishi yuqori darajada samarali, texnik infratuzilma va raqamli savodxonlik darajasi juda yuqori.

O'zbekistonda tizimlar hali boshlang'ich bosqichda, texnik infratuzilma cheklangan, raqamli savodxonlik darajasi o'rtacha. Kiberxavfsizlik va tizimlardan foydalanishdagi muammolar mavjud.

Qozog'istonda tizimlar kengaytirilgan, lekin ba'zi sohalarda avtomatlashtirilmagan va texnik infratuzilma yaxshilanishi zarur.

Jadval tahlili O'zbekistonga elektron hujjat aylanishi tizimlarini samarali joriy etish uchun xalqaro tajribalardan foydalanish, texnik infratuzilmani yaxshilash va raqamli savodxonlikni oshirish zarurligini ko'rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Elektron hujjat aylanishi tizimlarining samaradorligi bo'yicha solishtirish tahlili



Unda O'zbekiston, Estoniya, Janubiy Koreya va Qozog'istonning elektron hujjat aylanishi tizimlarining samaradorligini solishtirish uchun asosiy omillar ko'rsatilgan. Diagrammada har bir davlat bo'yicha tizim integratsiyasi, texnik infratuzilma, raqamli savodxonlik, kiberxavfsizlik, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi, xalqaro standartlarga moslashuv va hujjat aylanishining tezligi o'rtasidagi farqlar aks ettirilgan.

Asosiy ko'rsatkichlar:

Tizim integratsiyasi - turli tizimlarning bir-biri bilan moslashuvchanligi

Texnik infrastruktura - elektron hujjat aylanishi uchun zarur texnik imkoniyatlar

Raqamli savodxonlik - aholining elektron tizimlardan foydalanish bilimi

Kiberxavfsizlik - ma'lumotlarning himoyalanganligi

Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi - hukumat xizmatlarining onlayn darajasi

Xalqaro standartlarga moslashuv - global standartlarga muvofiqlik

Hujjat aylanishining tezligi - jarayonlarning tezkorligi

Diagrammadan ko'rinishicha, elektron hujjat aylanishi tizimlarida:

Estoniya eng yuqori (4-5 ball) natijalarga erishgan, bu mamlakat raqamli transformatsiya sohasida dunyoda yetakchi hisoblanadi.

Janubiy Koreya yuqori (4 ball) ko'rsatkichlarga ega, ayniqsa texnik infrastruktura va raqamlashtirish sohaslarida.

Qozog'iston o'rtacha (3 ball) darajada, ayrim sohalarda yaxshi natijalar ko'rsatgan.

O'zbekiston diagrammada eng past (0-2 ball) ko'rsatkichlarga ega, bu mamlakatda elektron hujjat aylanishi tizimlarini yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Diagramma turli mamlakatlarning raqamli hukumat tizimlaridagi taraqqiyot darajasini aniq ko'rsatib, O'zbekiston uchun Estoniya va Janubiy Koreya tajribasidan o'rganish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hujjat aylanishi, biznes jarayonlarining tezligi, samaradorligi va shaffofligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Elektron hujjat aylanishini rivojlantirish, davlat va xususiy sektorda ish jarayonlarini avtomatlashtirish, hujjatlarni tezkor va xavfsiz tarzda uzatish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, bu tizimning rivojlanishi uchun ma'lumotlarni saqlash, himoya qilish va ularga nisbatan qonunchilikni takomillashtirish muhimdir. Hujjatlarni elektron shaklda yuritish va ularning o'zaro aloqalari tashkilotlarda va davlat idoralarda samarali boshqaruvni ta'minlashga yordam beradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hujjat aylanishining samaradorligini rivojlantirish bo'yicha takliflar:

Texnologik infratuzilmani rivojlantirish: Elektron hujjatlarni ishlab chiqish va ularga ishlov berish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish zarur. Yangi platformalar va tizimlar yaratish, shuningdek, mavjud dasturiy ta'minotlarni takomillashtirish, tizimning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xavfsizlikni ta'minlash: Elektron hujjatlar bilan ishlashda axborot xavfsizligini ta'minlash, hujjatlarni himoya qilish uchun ilg'or shifrlash texnologiyalarini joriy etish kerak. Bu, hujjatlarning yaxlitligi va ishonchligini ta'minlashga yordam beradi.

Qonunchilikni takomillashtirish: Elektron hujjatlarni qabul qilish va ulardan foydalanishni yanada qulaylashtirish uchun qonunchilik bazasini takomillashtirish zarur. Shuningdek, hujjatlarning yuridik kuchga ega bo'lishi uchun maxsus me'yorlar ishlab chiqilishi kerak.

Kadrlar malakasini oshirish: Elektron hujjat aylanmasi tizimi samarali ishlash uchun kadrlar malakasini oshirish zarur. Tizimdan foydalanish bo'yicha treninglar va seminarlar tashkil etish, tizimning samaradorligini yanada oshiradi.

Davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish: Elektron hujjat aylanmasini rivojlantirishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, umumiy tizimlar va platformalarni yaratishga yordam beradi. Bu esa tizimni yanada samarali qilishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirzaev, B. (2021). *Raqamli iqtisodiyot va uning rivojlanish yo'nalishlari*. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqaviy tadqiqotlar instituti.
2. Rasulov, A. (2020). *Elektron hujjatlarni boshqarish: nazariy asoslar va amaliyot*. Tashkent: Iqtisodiyot va biznes universiteti nashriyoti.
3. Xushvaqto'v, M. (2019). *Axborot texnologiyalarining davlat boshqaruvidagi o'rni va rivojlanish istiqbollari*. Tashkent: O'zbekiston Milliy universiteti.
4. Akhmedov, F., & Jafarov, B. (2022). *Elektron hujjat aylanishi va uning iqtisodiy samaradorligi*. Tashkent: Iqtisodiyot va texnologiyalar instituti.



5. Karimov, M. (2021). *Raqamli texnologiyalar va raqamli hujjatlar: texnik va yuridik masalalar*. Tashkent: Innovatsion rivojlanish vazirligi.
6. Nazarov, I. (2023). *Hujjatlarni elektron shaklda yuritish va uning ahamiyati*. O'zbekiston iqtisodiyoti va huquqi jurnali, 8(1), 45-50.
7. Shodmonov, S., & Baxtiyorov, D. (2020). *Raqamli iqtisodiyotda axborot xavfsizligi va elektron hujjatlar*. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xalqaro tadqiqotlar instituti.
8. Nasirov, K. (2022). *Elektron hujjatlarni yaratish va boshqarish tizimlari*. Tashkent: O'zbekiston axborot texnologiyalari universiteti nashriyoti.
9. Xodjaev, A., & Ergashev, S. (2021). *Elektron hujjatlarni ishlashda qonunchilikka oid masalalar*. Tashkent: Adliya vazirligi.
10. Tashkent davlat iqtisodiyot universiteti. (2023). *Raqamli iqtisodiyot va yangi texnologiyalar*. Tashkent: TDIU nashriyoti.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>